

IQTISODIYOTNING XALQARO INTEGRATSIYASIDA INVESTITSIYALARNING O’RNI VA AXAMIYATI

N.J.Rahimova

TMI "Xalqaro Moliya va kredit" kafedrası magistranti

Ilmiy rahbar: **U.A.Yuldasheva,**

TMI "Xalqaro Moliya va kredit" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya’ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o’sishi ko’p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog’liq. Bizga ma’lumki, mamlakatdagi investitsion jarayonlar investitsion siyosat orqali amalga oshiriladi va tartibga solinadi. Investitsion siyosat mamlakatning investitsion salohiyatini oshirishga va investitsion faoliyatni kengayishiga yordam beradi. Darhaqiqat, bugun O’zbekiston mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish va modernizatsiyalash, ayniqsa, xususiy sektorni rivojlantirar ekan, investitsion faoliyatni jadallashtirishdagi xalqaro tajribalarga suyanmog’i lozim.

Kalit so’zlar: Xalqaro iqtisodiy integratsiya, integratsiya jarayonlari, investitsiya, investorlar, xalqaro TMKlar, tashqi savdo, raqobat, ichki va tashqi investitsiyalar, xalqaro mehnat taqsimoti, savdo-sotiq, innovatsion texnologiyalar, inflyatsiya.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ИНТЕГРАЦИИ ЭКОНОМИКИ

Магистрант: **Н.Ж.Рахимова**

Научный руководитель: **У.А.Юлдашева**, доцент кафедры

“Международные финансы и кредит”

Аннотация: От инвестиционных процессов в стране во многом зависит уровень развития каждой страны, то есть развитие и экономический рост экономики. Как мы знаем, инвестиционные процессы в стране осуществляются и регулируются посредством инвестиционной политики. Инвестиционная

политика способствует повышению инвестиционного потенциала страны и расширению инвестиционной деятельности. Действительно, сегодня Узбекистан должен опираться на международный опыт дальнейшего реформирования и модернизации экономики страны, особенно в части развития частного сектора, ускорения инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: Международная экономическая интеграция, интеграционные процессы, инвестиции, инвесторы, международные ТНК, внешняя торговля, конкуренция, внутренние и внешние инвестиции, международное разделение труда, торговля, инновационные технологии, инфляция.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF INVESTMENT IN THE INTERNATIONAL INTEGRATION OF THE ECONOMY

Master's student: **N.J.Rahimova**

Scientific adviser: **U.A.Yuldasheva** Docent PhD at the
“International Finance Credit” Department of
Tashkent Financial institute

Annotation: The level of development of each country, that is, the development and economic growth of the economy largely depends on the investment processes in the country. It is known to us that the investment processes in the country are carried out and regulated by investment policies. Investment policy helps to increase the investment potential of the country and investment activities. In fact, today Uzbekistan should rely on international experience in further reforming and modernizing the country's economy, especially in the development of the private sector, to accelerate investment activity.

Keywords: International economic integration, integration processes, investment, investors, International TCCs, Foreign Trade, Competition, domestic and Foreign Investment, International Labor distribution, trade, innovative technologies, inflation.

Kirish.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta ta'mirlash, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

Mamlakatda iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, uni tarkibiy jihatdan o'zgartirish, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, keng ko'lamdagi ichki va tashqi investitsiyalarni talab qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "... davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega"[1].

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu milliy xo'jaliklar (davlatlar) o'rtasida o'zaro ko'p tomonlama barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining turli darajada va turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi.[2] Integratsiya - jahon mamlakatlari o'rtasida yangi tovarlar oqimini shakllantirish orqali "resurslar cheklanganligi" muammosini bartaraf etish yo'li. Bu orqali jahon mamlakatlarida nisbatan serxarajat tovarlar ishlab

chiqarishga chek qo'yilib, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyatini beradi, ya'ni, ITTKIga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – davlatlararo iqtisodiy kelishuvlar shaklini oluvchi davlatlarning xo'jalik-siyosiy birlashish jarayonidir. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani amalga oshirishda davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtiriluvchi turli davlatlarning kompaniyalari darajasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilish muhim turtki bo'ldi. XXI asr boshida jahonda 100 dan ortiq davlatlarni qamrab oluvchi 30 ga yaqin integratsion guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya - bu turli shakl va turli darajadagi o'zaro muvofiqlashgan ishlab chiqarish tarkibining milliy iqtisodiyotlar mehnat taqsimoti asosidagi chuqur va barqaror aloqalardan iborat mamlakatlarning xo'jalik-siyosiy birlashuv (qo'shiluv) jarayonidir. Mikrodarajada bu jarayon kapitalning faoliyati orqali alohida xo'jalik subektlarining (korxonalar va firmalar) qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy kelishuvlar tizimini shakllantirish orqali xorijda filiallarni tashkillashdir. Davlatlararo darajada integratsiya davlatlararo iqtisodiy birlashmalarning shakllanishi asosida muvofiqlashgan siyosatni amalga oshirishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Investitsiya va integratsiyalarning mazmun-mohiyati to'g'risida iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Xorijiy hamda mahalliy mualliflarning iqtisodiy adabiyotlarda, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida xam ushbu atamalar turlicha talqin etiladi.

Prof.N.H.Haydarov investitsiyalar mazmun-mohiyatiga quyidagi ta'rifni beradi: “Investitsiya-bu mulk shaklidan qat'i nazar tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashdir”.[3]

Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va diversifikatsiyalash jarayonlarini kengaytirish masalalari A.Bulatov, A.Kireev, P.Krugman, V.Zubenko, V.Kovalev, R.Xasbulatov, M.Eskindarov, E.Zvonova singari olimlarning asarlarida tadqiq etilgan.[4] Ko'pchilik xorijlik olimlarning fikriga ko'ra «integratsiyaga doir

ko‘plab tadqiqotlar uni rivojlantirishning ijobiy samarasi ko‘p hollarda boshqa samaralardan ustunlik qilishini ko‘rsatadi». Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Alimov, I.Hamedov, J.Jalolov, I.Axmedov, I.Nematov, G.Nazarova, X.Xalilov, R.X. Shodievlarning[5] asarlari jahon integratsiyasi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan.

Tahlil va natijalar.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar asosan ikki ko‘rinishda(mikro-transmilliy korporatsiyalar(TMK)ning tashkil etilishi orqali, makro-iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali) amalga oshiriladi.

Mikro miqyosdagi integratsion jarayonlar - bir-biriga hududiy jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning kapitallarini o‘zaro ta’sir doirasi orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, ushbu davlatlar o‘rtasida integratsion jarayonlar iqtisodiy bitimlar tizimining shakllanishi, kichik shahobchalar, sho‘ba korxonalar tashkil etilishi orqali yuz beradi.

Tashkil topgan korxonalar va firmalar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning tez rivojlanishi tovar almashuvini, xizmat sohaslarini, kapital va ishchi kuchining mamlakatlararo erkin harakatini ta’minlashga, ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy-texnologik, tashqi iqtisodiy va mudofaa, moliyaviy va valyuta sohasida yagona siyosatni o‘tkazish zaruriyati tug‘iladi.

Yagona valyuta va moliyaviy fondlar, infratuzilmalar va umumiy davlatlararo boshqaruv organlariga ega bo‘lgan iqtisodiy majmualar yaratiladi.

Makro miqyosdagi integratsion jarayonlar - davlatlararo darajada integratsiya davlatlar iqtisodiy birlashmalarining shakllanishi hamda iqtisodiy siyosatlarning kelishuvi asosida amalga oshadi.²

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston MDH, ShHT kabi yirik mintaqaviy integratsiya birlashmalariga a‘zo hisoblanadi. Dunyo tajribasiga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston iqtisodiyotiga transmilliy korporatsiyalarni jalb qilish O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya tuzilmalarida samarali va chuqur ishtirok etishining muhim omili bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Markaziy Osiyo mintaqasi, MDH doirasidagi integratsiyalashuv jarayonlarida o'ziga xos xalqaro qo'shma kontsernlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kompaniyalarning tashkil topishi, hamkor mamlakatlarning sanoat ishlab chiqarish sohasidagi xo'jalik sub'yektlari orasida tarixiy shakllangan murakkab kooperatsiya aloqalarining qo'llab-quvvatlanishiga, Markaziy Osiyo integratsiyasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining tezlashishi va rivojlanishiga olib keladi.

Iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari quyidagilardan iboratdir:

1. Erkin savdo hududi. Uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladilar, lekin ularning har ikkalasi uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo to'siqlarini buzmaydi. Ya'ni maqsadi- qo'shni qatnashchi mamlakatlarning sustroq bojxona to'sig'i orqali uchinchi mamlakatlardan hududga kirib keluvchi import tovarlar uchun soliq undirish yoki uni ta'qiqlash.

2. Bojxonalar ittifoqi. Qatnashchi mamlakatlar tashqi savdo to'siqlarining yagona tizimini ta'sis etish.

3. Umumiy bozor. Qatnashchilar savdodan tashqari ishlab chiqarish omillarining barchasini bema'lol ko'chirish erkinligiga ega bo'lish.

4. To'la iqtisodiy ittifoq. Qatnashchi mamlakatlarning barcha iqtisodiy siyosatlarini bir xillashtirish.[6]

Iqtisodiy integratsiya natijasida resurslar erkin xarakat qiladi, raqobat kuchayadi, samaradorlik ortadi, tovarlar sifati yaxshilanadi, iste'molchilar talabi ortadi, Tovar turi ortadi, ishsizlik darajasi pasayadi, umumiy bozor shakllanadi, farovonlik oshadi, iqtisodiyot rivojlanadi va h.k.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, transmilliy korporatsiyalar o'zining tashkil topishi va faoliyat yuritish mexanizmi jixatidan xalqaro xarakter kasb etadi. TMKning xalqaro doirada faoliyat ko'rsatishi uchun esa ma'lum bir shart-sharoitlar va imkoniyatlar bo'lishi talab etiladi. Transmilliy korporatsiyalar uchun yaratilishi kerak bo'lgan bunday imkoniyatlarni biz, bevosita O'zbekiston a'zo bo'lgan integratsiya uyushmalaridan izlamog'imiz darkor. O'zbekiston miqyosida tashkil etilishi lozim bo'lgan transmilliy korporatsiyalarning xalqaro doirada faoliyat ko'rsatishi, bizning

nazarimizda O'zbekiston a'zo bo'lgan integratsiya uyushmalarining taraqqiyot yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha, mazkur integratsiya uyushmalarida qatnashchi mamlakatlar o'rtasidagi har taraflama xo'jalik aloqalarining chuqurlashuvi ma'lum bir mintaqaviy bozorlarni shakllantirish kerak ekanligini talab etadi. Chunki, tashqi bozorlarsiz mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyati chegaralangan bo'ladi.

Shu sababli TMKning, shuningdek, chet el investorlarining rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga kirib kelishi ob'ektiv zarurat bo'lib, buni biz mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashuvida va ishbilarmon tadbirkorlarning va ko'plab xorijiy mamlakatlar kapitallarining erkin ishlab chiqarish sanoat tarmoqlariga kirib kelishi jarayonlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va erkinlashtirish jarayonlarini amalga oshirishda, jahon bozorlarida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini investitsiyalash jarayonlarining borishida ko'zga ko'ringan TMKlar bilan hamkorlik qilish nihoyatda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahon mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham TMKlar investitsiyalarining kirib kelishi quyidagi omillarda namoyon bo'lishi mumkin:

- respublikada iqtisodiy va texnik taraqqiyot darajasining o'sib va tezlashib borishida;
- O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini yangilash va modernizatsiyalashda;
- respublikada ishlab chiqarish sanoat korxonalarini ilg'or uslubiy boshqaruv imkoniyatlariga ega bo'lishligida;
- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi mutaxassis-kadrlarni respublikada tayyorlash imkoniyatining mavjudligi va hokazolarda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ko'plab xo'jalik ahamiyatga ega bo'lgan islohotlarni o'tkazishda va bu mamlakatlarni iqtisodiy inqirozdan olib chiqishda TMKlar investorlarini jalb qilish katta ahamiyatga egadir. Chunki tarixiy

va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, bir xo'jalik tizimidan ikkinchi bir siyosiy xo'jalik tizimiga o'tish jarayonida u yoki bu mamlakatlar iqtisodiyotini ko'tarish uchun juda katta investitsiya va boshqa moliyaviy yordamlar talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi ham boshqa MDH mamlakatlari kabi bu sohada o'ziga xos muammolarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- birinchidan, O'zbekiston Respublikasini hududiy kattaligi (447,4 ming kv.km) va respublikada xalqaro transport kommunikatsiya tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalarining (dastgoh va asbob-uskunalar) eskirib qolganligi va hozirgi davr jahon standartlari, xo'jalik rivojlanishi talablariga javob bermasligi;
- uchinchidan, respublikada qishloq xo'jaligida yetarli resurslar mavjudligiga qaramay (tabiiy va inson resurslari, iqlim sharoitlari va hokazolar) past unumdorlik va hosildorlik darajasining saqlanib qolganligi va boshqalar.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududiga TMK investorlarini kirib kelishi uchun qulay investitsion iqlim mavjuddir. Buni biz respublikani barqaror siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida ko'rishimiz mumkin.

AQSh, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Shveysariya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi qudratli davlatlarning TMKlari va shuningdek, nufuzli xalqaro moliyaviy muassasalar (ETTB, OTB, ITB va boshqalar) bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida milliy sanoat korxonalariga, xizmat ko'rsatish sohalariga yangi mashina-uskunalarni, texnika va texnologiyalarni yetkazib berish, qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlash borasida bir qator muhim xujjatlar imzolangan. Bundan tashqari, xo'jalikni moliyalashtirish, Qashqadaryo va boshqa viloyatlardagi gaz-neft konlarini qidirish, o'zlashtirish loyihalarini kreditlash bo'yicha qator bitimlar imzolangan. Ayniqsa, neft-gaz konlarini o'zlashtirish bo'yicha Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Yaponiya TMKlari bilan bo'lgan munosabatlarning faol rivojlanib borishi respublika iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning paxta xom-ashyosini tayyor mahsulot sifatida xalqaro bozorlar talabiga javob beradigan

darajada qayta ishlaydigan to'qimachilik sanoat korxonalarini tashkil qilishda Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, Shveysariya va boshqa mamlakatlarning kompaniyalari bilan birga milliy kompaniyalar va banklar ham ishtirok etmoqda. Respublikada tadbirkorlikni, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki bilan yaqindan hamkorlik qilish, yangi kredit liniyalarini ochish respublika rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasiga TMKlar investorlarini jalb qilinishi uchun quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- O'zbekiston hududi tabiiy resurslarga-neft, tabiiy gaz, qurilish materiallari, oltin, mis va boshqa qimmatbaho metallarga ega ekanligi;
- Respublikada ishlab chiqarish va boshqaruv sohasidagi yangi texnologiyani tezda o'zlashtirib oluvchi malakali mutaxassis kadrlarning mavjudligi;
- O'zbekiston Respublikasida nisbatan arzon ishchi kuchining mavjudligi;
- O'zbekiston hududida ichki bozorlarning kengligi va ko'pligi;
- Respublikada iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va erkinlashtirish, sanoat korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarining jadal sur'atlar bilan olib borilayotganligi va ularda TMKlar investorlarining to'liq qatnashish imkoniyatining mavjudligi va boshqalar.

Respublikada rivojlangan davlatlarning TMKlari tomonidan ko'rsatilayotgan kapital mablag'lar tizimining o'sishi sanoat uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnik uskunalarni, texnologiyani sotib olish imkoniyatini bermiqda.

Xulosa.

Davlatlar xalqaro iqtisodiy integratsiyasini amalga oshirishda keyinchalik davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtiriluvchi turli davlatlarning kompaniyalari darajasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilish muhim turtki bo'ladi. XX asr nihoyasida 100 dan ortiq davlatlarni qamrab oluvchi 30 ga yaqin integratsion guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya milliy va xalqaro tadbirkorlik tuzilmalari manfaatlariga javob beradi, chunki:

- korxonalar faoliyatining geografik doiralarini kengaytirishga;
- tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchini xalqaro ayirboshlashda chegaraviy to'siqlarni bartaraf qilishga;
- masshtab effekti afzalliklarini realizatsiya qilishga;
- davlatlar o'rtasida texnologiyalar almashish bo'yicha bitimlar va yangiliklar kiritish oqimining o'sishiga;
- integratsion guruh a'zo davlatlar kompaniyalarining ITTKIga harajatlarini ko'paytirish hisobiga raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi.

Integratsiya jarayoni dinamikasining asosiy ko'rsatkichlari:

- mamlakatlararo tovar ayirboshlashning jami YaMMdagi ulushi;
- integratsion guruhga a'zo mamlakatlarning umumiy tovar aylanmasi hajmida ularning mamlakatlararo ayirboshlashining ulushi;
- integratsion guruhga a'zo mamlakatlarning o'zaro BXI hajmini ularning boshqa dunyo mamlakatlariga BXI hajmi bilan solishtirish;
- integratsion guruh ichida kompaniyalar birlashmalari sonini boshqa davlatlar firmalari bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish va qo'shilishlar soni bilan taqqoslash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.:“O'zbekiston”,2018-yil.B.22
- 2.Tursunova M.R. Xalqaro menejement. Darslik. – IQTISODIYOT DUNYOSI, 2022
- 3.Булатов А.С. Мировая экономика: Учебник. – М.: Юристъ, 2012. – 240 с.;
- 4.Nasirov.E.I., Asomxodjaeva.SH.SH.Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Darslik.-T.:“Iqtisod-Moliya”,2020.-145b
- 5.Tursunova M.R. Xalqaro menejement. O'quv qo'llanma. – IQTISODIYOT DUNYOSI, 2022.
- 6.Tursunova M.R. Xalqaro menejement. Darslik. – IQTISODIYOT DUNYOSI, 2022